



THE CURRENT STATE OF FISH PRODUCTION IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE ROLE OF TASHKENT REGION

Umurzokov Shakhzodbek

Doctoral Student at Chirchik State

Pedagogical University Chirchik, Uzbekistan,

Email: umurzoqovshaxzodbek@gmail.com

Abstract

This article provides an in-depth analysis of the current state of fish production in the Republic of Uzbekistan, highlighting its territorial characteristics as well as the geographical and economic foundations of the sector. Fish farming is considered a strategically important industry in ensuring food security, improving public health, and enhancing the country's export potential. As such, it has become one of the priority areas of state policy.

The article analyzes, based on statistical data, the water resources of Tashkent Region, the availability of natural and artificial water bodies, and the achievements resulting from the implementation of intensive fish farming technologies. By the end of 2024, Tashkent Region had produced 27.1 thousand tons of fish, making it the second-largest contributor to the country's total fish production. Furthermore, the paper examines the spatial distribution of fish farms, their infrastructural development, proximity to domestic markets, and advantages in terms of export potential.

Keywords. Fish farming, statistical data, fish catch, Tashkent Region, agriculture, intensive aquaculture.



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BALIQCHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA UNDA TOSHKENT VILOYATINING O‘RNI

Umurzoqov Shaxzodbek Dilmurod o‘g‘li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Chirchiq, O‘zbekiston, e-mail: umurzoqovshaxzodbek@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida baliqchilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati, uning hududiy xususiyatlari, geografik va iqtisodiy asoslari chuqur tahlil qilinadi. Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, aholi salomatligi va eksport salohiyatini oshirishda baliqchilik tarmog‘i strategik ahamiyatga ega bo‘lib, uni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Maqolada Toshkent viloyatining umumiy suv resurslari, mavjud tabiiy va sun‘iy suv havzalar, intensiv baliq yetishtirish texnologiyalarining joriy etilishi natijasida erishilgan yutuqlar statistik ma‘lumotlar asosida tahlil qilinadi. 2024-yil yakunlariga ko‘ra, Toshkent viloyatida 27,1 ming tonna baliq yetishtirilgan bo‘lib, bu viloyatni respublika miqyosida ikkinchi o‘ringa olib chiqqan. Shuningdek, maqolada baliqchilik tarmog‘ining hududiy joylashuvi, infratuzilma bilan ta‘minlanganlik darajasi, ichki iste‘mol bozoriga yaqinligi va eksport salohiyati nuqtai nazaridan afzalliklari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Baliqchilik, statistik ma‘lumotlar, ovlangan baliqlar, Toshkent viloyati, qishloq xo‘jaligi, intensiv baliqchilik.

"СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОИЗВОДСТВА РЫБНОЙ ПРОДУКЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН И РОЛЬ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ"

Умурзоков Шахзодбек Дилмурод угли

Докторант Чирчикского государственного педагогического университета

Чирчик, Узбекистан, email: umurzoqovshaxzodbek@gmail.com



Аннотация

В данной статье всесторонне анализируется современное состояние производства рыбной продукции в Республике Узбекистан, его территориальные особенности, географические и экономические основы. Рыбоводство рассматривается как стратегически важная отрасль в обеспечении продовольственной безопасности, улучшении здоровья населения и повышении экспортного потенциала страны, что делает его одним из приоритетных направлений государственной политики.

В статье на основе статистических данных проанализированы водные ресурсы Ташкентской области, наличие природных и искусственных водоемов, а также достижения, достигнутые за счет внедрения интенсивных технологий выращивания рыбы. По итогам 2024 года в Ташкентской области было произведено 27,1 тыс. тонн рыбы, что вывело регион на второе место в республике по объему рыбной продукции. Кроме того, в статье рассматриваются территориальное расположение рыбоводных хозяйств, уровень обеспеченности инфраструктурой, близость к внутренним рынкам сбыта и экспортные преимущества.

Ключевые слова: рыбоводство, статистические данные, выловленная рыба, Ташкентская область, сельское хозяйство, интенсивное рыбоводство.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi sohasida baliqchilik tarmog'i muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda baliq yetishtirish hajmi ortib, ichki bozorni ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Toshkent viloyati esa bu borada yetakchi hududlardan biri hisoblanadi.

O'zbekistonda baliqchilik mahsulotlari yetishtirishning umumiy holati. Statistika agentligining 2024-yil yakuni bo'yicha bergan rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida baliq mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 198,9 ming tonnani tashkil etdi [1; 2]. Bu esa 2023-yilga nisbatan 7,3 foizga



o'sish demakdir va baliqchilik tarmog'ining dinamik rivojlanayotgan sohalardan biri ekanligini ko'rsatadi. Aholi sonining ortib borishi, sog'lom ovqatlanishga bo'lgan talabning oshishi, shuningdek, davlat tomonidan baliqchilik infratuzilmasiga qaratilgan qo'llab-quvvatlov siyosati bu jarayonga kuchli turtki bo'lmoqda.

Hududlar kesimida esa keskin farqlar kuzatilmoqda. Jumladan, Xorazm viloyati 30,9 ming tonna baliq yetishtirish bilan mamlakat bo'yicha yetakchilik qilmoqda [7;8]. Bu viloyatning Amudaryo daryosi va uning tarmoqlari bilan boy bo'lgan gidrografik sharoiti, tabiiy va sun'iy suv havzalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari, hamda suvda ozuqa zanjirining qulay shakllanishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, Toshkent viloyati 27,1 ming tonna baliq mahsuloti ishlab chiqargan holda ikkinchi o'rinni egalladi. Viloyatning ushbu yuqori ko'rsatkichga erishishi bir qator geografik va iqtisodiy omillar bilan bog'liq.


№	Hududlar	Ovlangan baliqlar (ming t)
1	Xorazm viloyati	30.9
2	Toshkent viloyati	27.1
3	Samarqand viloyati	19.9
4	Andijon viloyati	19.1
5	Namangan viloyati	17.3
6	Jizzax viloyati	16.3
7	Farg'ona viloyati	14.1
8	Qoraqalpog'iston R.	12.7
9	Sirdaryo viloyati	10.6
10	Navoiy viloyati	9.3
11	Surxondaryo viloyati	7.1
12	Buxoro viloyati	6.2
13	Qashqadaryo viloyati	4.4

1- jadval. Hududlar kesimida 2024 yilda ovlangan baliq hajmi (ming t)

Birinchidan, bu hududning yirik bozorlar - poytaxt Toshkent shahri bilan bevosita yaqin joylashuvi, mahalliy iste'molchilarga tez yetkazib berish imkoniyatini ta'minlaydi. Ikkinchidan, viloyatda mavjud bo'lgan 7,5 ming gektar



sun'iy hamda 3,6 ming gektar tabiiy suv havzalari, shuningdek, 560 ta baliqchilik xo'jaligining faoliyati baliq yetishtirish salohiyatini oshiradi [1;7]. Uchinchi, intensiv texnologiyalarni joriy etish orqali bir necha barobarga ortiq hosildorlikka erishilayotgani viloyatni iqtisodiy-geografik jihatdan qulay holatga keltirmoqda. Ayniqsa, Yangiyo'l, Chinoz, Quyichirchiq, O'rtachirchiq Bo'ka kabi tumanlarda tabiiy iqlim sharoitlari va suv resurslarining mavjudligi baliqchilik xo'jaliklari rivojlanishining muhim omillaridan hisoblanadi.



***1-rasm. 2010 va 2023 yillarda Toshkent viloyatida ovlangan baliqlarning hajmi
(ming t)***

Bundan tashqari, Toshkent viloyatida sohada kooperatsiya va oilaviy tadbirkorlik asosida kichik hajmdagi baliq yetishtirish faoliyatlari ham ommalashgan. Bu esa hududiy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Umuman olganda, viloyat baliqchilikda o'zining barqaror ishlab chiqarish infratuzilmasi, yetarli darajadagi mehnat resurslari, transport-logistika qulayliklari va intensiv agrotexnologiyalarni keng joriy etish imkoniyatlari bilan yuqori samaradorlikni ta'minlamoqda.



Foydalanilgan dabiyyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. (2024). “Qishloq xo‘jaligi statistikasi: 2024-yil I chorak yakunlari bo‘yicha ma’lumotlar”. stat.uz
2. Xabar.uz. (2024). “O‘zbekistonda baliq eng ko‘p ovlanadigan viloyatlar nomi aytili”. 04.05.2024. <https://xabar.uz/uz/iqtisodiyot/ozbekistonda-baliq-engloyat-nomi-aytili>
3. Normatov, I.A., & Toshpulatova, S. (2021). “O‘zbekistonda suv xo‘jaligi va baliqchilik sohasining zamonaviy muammolari”. *O‘zMU ilmiy jurnali*, 2(87), 134–141.
4. Qodirov, U. (2020). “Baliqchilik xo‘jaliklarini hududiy joylashtirishning geografik asoslari”. *Geografiya va tabiiy resurslar*, 3(5), 75–80.
5. FAO. (2022). *Fishery and Aquaculture Country Profiles: Uzbekistan*. Food and Agriculture Organization of the United Nations.
6. Islomov, A. (2022). “Baliqchilik xo‘jaliklarida intensiv texnologiyalardan foydalanish yo‘llari”. *Agrosanoat innovatsiyalari jurnali*, 4(6), 53–59.
7. Toshkent viloyati hokimligi rasmiy sayti. (2023). “Viloyatda baliqchilik yo‘nalishida amalga oshirilayotgan loyihalar”. <https://toshvil.uz>
8. Mirzayev, N. (2023). “O‘zbekistonning iqtisodiy geografiyasi”. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
9. “O‘zbekiston Respublikasi baliqchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun. (2020). O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. lex.uz